

**MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI  
USLUBCHISINING METODIK KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

**Normurodova Nodira Maxmudovna**

Xalqaro NORDIK Universiteti 1-kurs magistranti

E-mail: [kuxinuon2010@gmail.com](mailto:kuxinuon2010@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari uslubchisi va uning vazifalari, kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi tahlil qilingan. Hozirgi paytdagi uslubchilarining kasbiy kompetensiyassidagi kamchiliklar va muammolar o‘rganilgan. Uslubchining kasbiy komponentligini oshirish masallariga to‘xtalib o‘tilgan, ta’lim-tarbiya ishlarini talab darajasida amalga oshirishi, boshqarish, metodik yordam, liderlik sifatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlari:** kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat, ta’lim integratsiyasi, pertseptiv qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, konstruktiv qobiliyat, gnostik qobiliyat, didaktika, uslubchi,liderlik, boshqaruv usuli, axborot texnologiyalar, tashabbus, tajriba.

**ABSTRACT**

This article analyzes the issue of development of the designer of pre-school education organizations and his tasks, professional competence. Deficiencies and problems in the professional competence of current educators have been studied. Examples of improving the professional competence of stylists are discussed, information is provided about the implementation of educational work at the required level, management, methodical support, and leadership qualities.

**Keywords:** professional competence, pedagogical skill, educational integration, perceptive ability, communicative ability, constructive ability, gnostic ability, didactics, style, leadership, management method, information technology, initiative, experience.

**KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagilarga yo‘nalishlari belgilab berilgan:

-sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish;

-pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

-yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish.

Bugungi kunga qadar kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyachi-metodistning kompetentliligini rivojlantirish borasida yetarlicha tadqiqot ishlarining olib borilmaganligi ham dolzarb muammodir. Chunki ta'lim muassasalarida uslubchining kasbiy kompetentliliği rivojlantirilsa, ularning innovatsion kompetentlilikni shakllantirishning nazariy va amaliy masalalari o'rgatib borilsa, tarbiyachi faoliyatining keyingi bosqichlarida bolalarni mакtab ta'limiga sifatli tayyorlash bilan bog'liq masalalar biroz bartaraf etilgan bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti nizomida, hamda 255-sonli malaka tavfsiflari to'grisidagi buyrug'da uslubchining huquq va vazifalari aniq belgilab berilgan. U ta'lim-tarbiya uslublarini mukammal egallagan, siyosiy ongi, dunyoqarashi keng, yuksak ma'naviy fazilatlar sohibi, tadbirkor, soha tizimida uch yil stajga ega bo'lgan, kamida bitta xorijiy tilni biladigan pedagog-tarbiyachilar orasidan tayinlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchilarining lavozim vazifalari quyidagicha:

- maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyatga rahbarlik qilish
- metodist o'z faoliyati davomida

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, qarori va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari, hamda ta'limga oid boshqa amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, Maktabgacha ta'limi vazirligi hamda uning hududiy boshqaruv organlari, bo'ysunuviga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimlari (keyingi o'rinnarda mahalliy davlat hokimiysi organlari" deb yuritiladi)ning qarorlari va boshqa hujjatlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinnarda tashkilot deb yuritiladi)ga berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini to'liq bajarilishini ta'minlash;

-metodist o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" 2019 yil 16 dekabrdagi O'RQ-595-son va "Ta'lim to'g'risida"gi 2020 yil 23 sentabrdagi O'RQ-637-son qonunlari, 2020-yil 22-dekabr 802-sonli qarori- "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash

to‘g‘risi”da ,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, qarori va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta’limga oid boshqa amaldagi huquqiy-me’yoriy hujjatlar, Maktabgacha ta’limi vazirligi hamda uning hududiy boshqaruva organlari, bo‘ysunuviga qarab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimlari (keyingi o‘rinlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari” deb yuritiladi)ning qarorlari va boshqa hujjatlarda maktabgacha ta’lim tashkiloti (keyingi o‘rinlarda tashkilot deb yuritiladi)ga berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini to‘liq bajarilishini ta’minalash;

–maktabgacha ta’lim sohasiga oid normativ-hujjatlarni amaliyatga to‘laqonli tatbiq etish; –tashkilotning o‘quv-metodik faoliyatini samarali tashkil etish;

–bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish yuzasidan pedagog kadrlar bilan ishlash, ularga metodik maslahatlar berib borish;

–tashkilotning yillik va istiqbol ish rejalarini loyihibalarini ishlab chiqish va tashkilot rahbariyatiga kiritish; –tashkilot pedagog xodimlarining ish rejalarini, o‘quv-mavzu rejalarini hamda mashg‘ulotlarga tayyorgarlik holatlarini ko‘rish;

–tashkilotda tarbiyalanuvchilarining intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishini kuzatish, baholashga doir ma’lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish va natijasiga ko‘ra aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish yuzasidan zarur choratadbirlar belgilash;

–ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash, bolalarni maktabgacha ta’limga tayyorlashdagi dolzarb masalalarni pedagogik kengashning muhokamasiga kiritish va unda pedagogik kengash a’zolarining faol ishtirokini ta’minalash, kiritilgan masalalarni chuqur o‘rganish, natijalari bo‘yicha sifatli, tahliliy, tanqidiy ma’lumotlar tayyorlash, qabul qilingan qaror va buyruqlarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini tashkil etish hamda ta’minalash;

–tashkilotning yillik ish rejasida belgilangan vazifalarini tegishliligi bo‘yicha sifatli va samarali o‘z vaqtida bajarilishini ta’minalash, pedagogik jamoaga ta’limdagи yangiliklarni yetkazish bo‘yicha nazariy, amaliy seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish;

–tashkilotdagi guruh xonalarini bolalar yoshiga mos ravishda jihozlash yuzasidan tegishli maslahatlar berish;

–ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarda umumiylashtirish asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

–axborot va pedagogik texnologiyalarini, jumladan masofaviy o‘qitish usullarini tashkil etish ishlarini qo‘llash va takomillashtirishni ta’minalash;

–tashkilot pedagog xodimlari o‘rtasida sog‘lom raqobatli muhitni yaratish maqsadida ko‘rik-tanlovlar, tadbirlar, sport musobaqlari, o‘quv va amaliy seminarlar tashkil etish va o‘tkazish;

–tarbiyalanuvchilar va ota-onalarni qiziqishini orttirish uchun turli sport musobaqlari, bayram ertaliklari, ochiq mashg‘ulotlar, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilishini tashkil etish;

–tashkilot xodimlariga vakolati doirasida topshiriqlar berish va ularning bajarilishini nazorat qilish, xodimlarning kasbiy mahorati va metodik salohiyatini oshirish ishlarini tashkil etish;

–tashkilot pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimlar attestatsiyasini hamda ular tomonidan mehnat intizomiga rioya qilinishini nazorat qilish, o‘z vakolati doirasida eng faollarini rag‘batlantirish, jamoada sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishda takliflar kiritish;

–tashkilotni o‘quv-didaktik, metodik va ko‘rgazmali materiallar, o‘yin, o‘yinchoqlar va musiqa asboblari bilan jihozlashga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash va rahbariyatga taklif kiritish;

–tashkilotda ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomasi, sanitariya qoidalari va gigiyena normalariga, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalari qat’iy rioya qilishni ta’minalash.

–Pedagog xodimlarga metodik yordam berish, pedagogik faoliyatni tahlil qilish.

–Pedagog xodimlarning tasdiqlangan ish rejalarda belgilangan vazifalar bajarilishini nazorat qilish.

–Tashkilotda to‘garaklar faoliyatini yuritishni ta’minalash.

–Tashkilotning ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarini muvofiqlashtirish va yo‘naltirish.

–Direktor yo‘qligida uning lavozim vazifasini bajarish.

–tashkilotda huquqbazarlik, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, giyohvandlik va boshqa zararli odatlardan saqlanish, uning oldini olish choralarini ko‘rish bo‘yicha ota-onalar va jamoatchilik o‘rtasida keng qamrovli targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish.

Uslubchi hamkasblarining hurmatini qozonish va ularga o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun muayyan rahbarlik salohiyatiga ham ega bo‘lishi lozim. U nafaqat puxta nazariy tayyorgarlikka, balki bilim va tajribalarini amalda qo‘llash ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishi zarur. Tajribali uslubchi tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondashish g‘oyalarini umumlashtira bilishi, aniq maqsadni ko‘zlab faoliyat yuritishi, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini e’tiborga olishi bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti uslubchisining ta’lim-tarbiya yo‘nalishidagi faoliyatining samaradorligi, uning obro‘- e’tibori ko‘p

jihatdan pedagoglar jamoasi, eng avvalo, tashkilot rahbariyatining jipsligi, uyushqoqligi va bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat yuritishiga bog‘liqdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Uslubchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni tadqiq qilish masalalarini bir qator olimlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik - ishonchlilik sifatlari bilan birgalikda o‘qituvchining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg‘a surganlar. O‘z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V. A. Slastenin ta’kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi<sup>1</sup>.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda, ko‘pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida «kompetentlik» degan tushuncha keyingi paytlarda keng qo‘llanilmoqda. Ta’lim tizimiga kompetentli yondashuv xorijiy adabiyotlarda o‘tgan asrning 60-yillarida shakllana boshlagan edi.

G‘arb mamlakatlarida shakllangan an'anaga muvofiq mutaxassisning kasbiy malakasi uning kompetentlik, ta’lim tizimi esa — bilim, ko‘nikma va malakalar darajasi bilan o‘lchanadi. Xorijiy mamlakatlarda an'anaga muvofiq ishchining bilim va malakalarining o‘ziga xos-xususiyati hisoblangan mutaxassislik (malakaviy) standartlari ishlab chiqiladi. Kompetensiya o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Pedagogikada kompetent yondashish mutlaqo yangi hodisa emas, balki uning irmoqlari uzlucksiz rivojlanib boruvchi ta’limjarayonlarida mavjud bo‘lib, ular bosqichma-bosqich shakllangan. «Mahorat», «malaka», «salohiyat» masalalari, faoliyat, shu bilan birgalikda bir qator faoliyatlarning birikuvi M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, V.V.Krayevskiy, G.P.Shydrovidskiy, V.V.Davidov va boshqa pedagogika sohasining olimlari ilmiy asarlari asosini tashkil etgan. D.L.Tompson, D.Pristinlar: «Kasbiy kompetentlik - ishda kerak bo‘lgan bilimlarning va barcha axloqiy qoidalarning yig‘indisidir», - deb ta’kidlaydilar. I.V.Grishina kasbiy kompetensiya shaxsning o‘z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha ta’riflaydi:<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Kasbiy kompetensiyanı rivojlantirish, tdpu nashriyoti, o‘quv qo‘llanma. 2019

<sup>2</sup>R. Suleymanova Kasbiy kompetentlikni shakllantirish. Psixologik trening asoslari fan, toplamlar va ular ustida amallar, 2

“- Ushbu faoliyatga bo‘lgan munosabati, unga zarurat va qiziqishi, intilishlari, qadriyatları, faoliyatdan maqsadi, o‘zining ijtimoiy o‘rnini tasavvur qilishi;- o‘zining shaxsiy o‘ziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqeiga, kasbiy bilim, mahorat va h.)ko‘nikmalari, kasbiga xos boshqa xususiyatlarga baho berish- shu asosda o‘zini kasbiy jihatdan shakllanishini va o‘sishini boshqara bilishi.”

A. K. Markova eng ko‘p o‘qituvchi mehnatining kasbiy kompetentligi asoslarini qidirgan pedagog olim. A. K. Markova fikri bo‘yicha o‘qituvchining mehnati kompetentlikka aylanadi qachon-ki o‘qituvchi o‘z faoliyatini yetarlicha yuqori hamda talabalarni o‘qitish va tarbiyalashni yuqori darajada amalga oshirsa. Ushbu asoslar bilan birga o‘qituvchining kasbiy kompetentligini to‘rtga bo‘lib o‘rganadi: Maxsus yoki faoliyatli kasbiy kompetentlik - bu faoliyatni yuqori kasbiy darajada olib borishi. Maxsus kasbiy kompetentlik nafaqat maxsus bilimlardan, balki bu bilimlarni amalga oshirishdan iborat;

Ijtimoiy kompetentlik - bu qo‘sishimcha faoliyatni olib borish yo‘llarini bilish, hamkorlikda bajarish yo‘llarini bilish; Shaxsiy kompetentlik – o‘zini rivojlantirish va o‘zini ko‘rsatish yo‘llarini bilish (mutaxassis o‘zining faoliyatini rejalashtirish, mustaqil qaror qilish, ma’lumotlar bilan va o‘z ustida ishlash).

Individual kompetentlik - bu o‘zini boshqarish yo‘llarini bilish, kasbiy rivojlanishga tayyorgarlik va kasbiy yangiliklar yaratish. Shu bilan birga o‘qituvchining bilimlari yangiliklar bilan boyigan bo‘lishi, psixologik va pedagogik fazilatlar yuqori darajada bo‘lishi Kasbiy kompetensiya tuzilishi va mazmuni ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat. Kasbiy kompetentsiya –bu bilim, mahorat va tajriba uzviyligi bo‘lib, loyihalash mutaxassis faoliyatini ruyobga chiqaruvchi omil hisoblanadi. Turli mualliflar tomonidan e’lon qilingan kasbiy kompetensiya muammolari tug‘risidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi. Ayniqsa, kasb ta’limi o‘qituvchilar uchun bu o‘ta muhim jihat sanaladi hamda mutaxassisning kasbiy kompetensiyasida ijodkorlik masalasiga alohida urg‘u beriladi. Ijodiy dunyoqarash va qo‘rqmay ijodiy faoliyat ko‘rsatish, Hatto u turmush masalalari bo‘lsa ham; «bola» va uning mashg‘ulotlari erkin tarzda takomillashib borishini chin dildan istashi va uni tashkil etish maqsadi talabaning o‘sishi va har tomonlama rivojlanishi uchun shaxsiy mas’ullik ana shular jumlasidandir.<sup>1</sup>

Adabiyotlar tahlini o‘rganib quyidagilarni keltirishimiz mumkin kasbiy kompetentlik 4 jihatni o‘z ichiga oladi.<sup>2</sup>

5341812802136840895/ <https://azkurs.org/kasbiy-kompetentlikni-shakllantirish.html>

<sup>2</sup> Line, M. "Creating Caring Qualified Early Childhood Teachers: An Exploration Of The Relationship Between Teacher Efficacy And Learner-Centeredness Among Early Childhood Professionals In Arkansas". Published by ProQuest(2016)



## MATERIALLAR VA USULLAR (MATERIALS AND METHODS)

Uslubchining kompetensiyasini aniqlashda metodlardan foydalanishga qaror qildim. Men so‘rovnama metodidan foydalandim va onlayn va oflayn tarzda o‘tkazdim. Maktabgacha talim Uslubchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda so‘rovnama usulidan foydalanishni afzal ko‘rdim. Bu usulda 10 ta savoldan foydalangan holda amaliyotda qo‘lladim. Bunda uslubchilar bilan onlayn va yozma tarzda savollarga javob oldim. Bu orqali maktabgacha talim tashkilotlarida uslubchilarning bilim salohiyatini va muammolarini o‘rgandim. Shu usuldan foydalangan holda men ancha ma’lumotlarga ega bo‘ldim.

## TADQIQOT NATIJALARI. (RESULT)


Ushbu tadqiqotda so‘rovnama usuli orqali bir qator savollar respondentlarga yo‘llangan. So‘rovnama usulidan kutilgan natija maktabgacha ta’lim tashkiloti uslubchisining kasbiy kompetensiyasi oshirishda qaysi usullardan foydalanishini belgilash va ularni mahoratlarini oshirish uchun nima ishlar qilish kerakliginga ilmiy yechimlar berish.




Uslubchining kasbiy mahorati to‘g‘risida o‘tkazilgan so‘rovnomada quyidagilar ma’lum bo‘ldi:

"Siz o'zingizni professional kasbiy kompetensiyalarga ega uslubchi deb hisoblaysizmi?" - degan savolga 80 nafar respondentning 40% i ha javobini, 60% respondentlar esa yo'q javobini berishgan.

2.Uslubchining ning kasbiy kompetensiyasini oshirishda kompyuter dasturlari va axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish muhim deb hisoblaysizmi? Ushbu savolga respondentlar tomonidan quyidagi natijalar olinganligini jadvalda ko'rishimiz mumkin.



3 Maktabgacha ta'lif tashkilotingizga xorij tajribalaridan turli metod va usullarni olib kirganmisiz. Ushbu savolga quyidagi natijani guvohi bo'ldim. Ushbu savolga odamlar 50% Ha 40% Yo'q va 10% ba'zan javobini bergenlar.



4 Ta'limga oid bilim va yangiliklardan doimiy habardormisiz va amaliyotda qo'llaysizmi? degan savolimga natijalari shuni ko'rsatadiki, 80% ha javobini 20% esa yo'q javobini oldim.




5.Ishlash jarayonida direktor va boshqa tashkilot uslubchilari bilan doimiy muloqotda bo'lasizmi? Quyidagi savolimizga uslubchilar 60% Ha 20% yo'q 20% esa Ba'zan javobini bergenlar.




6. Seminar treninglarda faol ishtirok etasizmi degan savolga quyidagicha javob oldim. 40 % Ha 30% yo'q va 30% ba'zan degan javobni oldim.




7 Ota –onalar bilan doimiy hamkorlikda ish olib borasizmi degan savolimizga uslubchilar quyidagicha javob berdilar. 90 % Ha javobini 10% Yo‘q javobini oldik. Bundan ko‘rinib turibdiki, uslubchilarimizning aksariyati ota onalar bilan hamkorlikda ish olib boradi ekan. Chunki bola tarbiyasida hamkorlik asosiy o‘rinni egallaydi.



8. Hozirgi zamон uslubchilari yetarlicha bilim malaka va mahoratga egами? Degan savolimizga mana bunday natijaga eга bo‘ldim. Ha 50% Yo‘q 50 % natijalarimiz tenglikni ko‘rsatdi.



9. Sizning Maktabgacha ta’lim tashkilotingizda faoliyatizingiz uchun shart – sharoitlar yetarlimi? Degan savolga uslubchilarimizdan quyidagicha javobni oldim. Ha 20% Yo‘q 30% va Qisman 50% degan ko‘rsatkichlarni oldim.



10. Uslubchilarning kasbiy mahoratini oshirish uchun nima ishlar qilish kerak degan savolimga tashkilot direktorlari quyidagicha javob bergan.

- O‘z ishiga astoyidil mehr qo‘yishi kerak.

- O‘z ustida ishlashi yangi metod va usullarni tadbiq qilishi, bolalar bilan doimiy muloqotda bo‘lishi va malakasini oshirishi kerak.

- Seminar treninglar tashkil qilish kerak

- Ularni oyligini ko‘tarish kerak. Faoliyat yuritishlari uchun qulay shart sharoitlar yaratishi kerak.

- Resurs bazani kengaytirish kerak ya’ni o‘quv materiallar, adabiyotlar va texnologiyalarni ko‘paytirish kerak.

- Nafaqat uslubchilarga balki tarbiyachi va ota –onalarga ham maxsus treninglar o‘tilishi kerak.

- Axborot texnologiyalarni o‘rgatish uchun maxsus darslar tashkil qilish kerak. Chunki zamon tezlashib ketyapti, bolalarimizga bilim malakalarni zamonaviy tarzda o‘tilishini xohlaymiz.

- Hamma uslubchilari oliy malumotli bo‘lishi kerak hozirgi paytda uslubchilarini qaraydigan bo‘lsak ko‘plari o‘rta maxsus hisobllanadi.

- Maktabgacha ta’lim muassasalarida yaxshi ish haqi to‘lanmasa, bu kasbga qiziqish bo‘lmaydi, albatta. Shu kunga qadar qanchadan-qancha tajribali, yaxshi kadrlar past ish haqi sabab bu kasbni tark etgan.

- Resurs bazani kengaytirish kerak

- Chet el Maktabgacha ta’lim faoliyatiga malaka oshirish uchun ishga jo‘natish kerak. Chunki chet el Maktabgacha ta’lim faoliyati biznikidan ancha yuqoriroq o‘rinni egallaydi.

Ushbu so‘rovnoramam 80 dan ziyod uslubchilaridan online va offline tarzida amalga oshirdim va ularning 70 % dan yuqorisi o‘zlarini rivojlantirish kerakligini va buning uchun ularga imkoniyatlar va shart sharoitlar yetarli emasligini o‘rgandim. Tadqiqotim davomida shuni bildimki, savollar turlicha bo‘lgani bilan muammo bir xil ko‘p insonlarda javoblar asosan bir xillikni ko‘rsatdi.

Maktabgacha talim tashkilotini yanada takkomillashtirish uchun biz uslubchilar o‘rtasidagi muammolarni bilishimiz zarur.

## DISCUSSION

Maktabgacha ta’lim uslubchilari uchun tayyorlangan so‘rovnoma usulimni o‘tkazdim va ularning yechimlari haqida to‘xtalib o‘taman.

- bo‘lishi;

- o‘z fanlari bo‘yicha bilimlarini pedagogik mahorat bilan to‘ldirish

- Kamida bitta chet tilini bilish

•O‘zi mas’ul bo‘lgan fanlar bo‘yicha barqaror bilim va tushunchaga ega ijodkorlik, hamkorlik, ta’limning ijtimoiy mazmunini tushunish (ayniqsa, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi, psixolog, logoped);

•Texnologiyaning (ayniqsa, AKT ning) pedagogik imkoniyatlarini tushunish, o‘qitish va o‘qitish jarayonida integratsiyalashuv imkoniyatlarini rivojlantirish;

•O‘qishda muammolari/to‘siqlari bor, shu jumladan ma’lum o‘quv dasturlari bo‘yicha yordamga muhtoj, shuningdek, hissiy va xulq-atvor muammolari bo‘lgan bolalarni o‘rganish darajasini oshirish uchun bilim va ko‘nikmalar

•Rossiyalik pedagog, yozuvchi, jurnalist va kitob nashriyotchisi N.I. Novikova, metodist quyidagi talablarga javob berishi kerak; to‘g‘ri va aniq fikr yuritish qobiliyatiga ega bo‘lish; bolalarga yaqinlasha olish; mehrli bo‘l; rus tilini bilish va xorijiy tillar; yaxshi talaffuzga ega; yaxshi xulq-atvor va odobli tashqi ko‘rinish. deb aytib o‘tgan ekanlar.

Pedagoglik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har birlari pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, ulkan natijalarga erishadi, o‘z ishining natijasi bilan mo‘jizalar yaratadi, ijodkor hisoblanadi. Har bir ishga qobiliyatli, iste’dodli insondagina pedagogik mahorat bo‘lishi mumkin.

Rahbarlik odobi va uning axloqiy jihatlariga doir O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mana bu fikrlari g‘oyat ibratlidir: «Oddiy odamlarning rahbarlarga munosabati ikki fuqaro o‘rtasidagi munosabatgina emas. Ayni paytda u jamiyatda qaror topadigan ma’naviy-ruhiy, siyosiy-axloqiy muhitni ham yaratadi. ... Haqiqiy rahbar odamlarning ko‘ngliga yo‘l topib, ularni ezgulikka, yaxshilikka, yaratishga da’vat etadi» Bundan ko‘rinib turibdiki har bir inson kim bo‘lishidan qat’i nazar avvalo insoniyligini yo‘qotmasligini aytib o‘tadi. Metodist ikkinchi rahbardir. Rahbar avvalo o‘z kasbini sevadigan atrofidagi hodimlariga do‘stona munosabat bildiradigan, boshqalarni hurmat qila olishlari kerak.

Ta’limda sifatga erishish boshqa barcha sohalarda ham sifatni ta’minlay oladigan omil hisoblanadi. Sifat atamasini aniqlash ko‘pincha to‘siqlarga duch keladi. Ya’ni, Aristotel ta’riflab bo‘lmaydigan oltita atama borligini, shu jumladan sifat tushunchasini aytdi. Biroq, hozir biz boshqacha fikrdamiz. Ya’ni, sifat atama sifatida nisbiy ma’noga ega - u mulk, xususiyat, fazilat, qadriyat, yaxshi xususiyatni anglatadi. Sifatli ta’lim degan savolga javob berish uchun "ta’lim" faoliyati egalarining harakati natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni baholash orqali erishish mumkin. Ushbu faoliyatning tashuvchisi pedagog va talabalardir. Ya’ni, o‘qituvchi va o‘quvchilarining o‘z faoliyati natijasida va natijasida o‘quvchi shaxsida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar izlanishi va ta’limdagi yutuqlar sifatini belgilab berishi kerak bo‘lgan sohadir. Sifat - bu sodir bo‘ladigan narsa, ta’limning muayyan bosqichida yoki bosqichida nima

bo‘lishi mumkin. Sifatli ta’lim - foydalanuvchilarning ta’lim (rivojlanish) ehtiyojlarini qondiradigan yoki foydalanuvchilarga moslashtirilgan ta’lim. Bunga ko‘plab omillar ta’sir qiladi: muhit, an’analar, o‘quv jarayonini amalga oshirish shartlari, pedagoglarning kasbiy kompetentsiyasi. Ta’lim sifati asosan quyidagilarga qaratiladi:

- kirish sharoitlari - resurslar,
- maqsadlar,
- Pedagogning sifati,
- Ta’lim oluvchilarning xususiyatlari,
- sifati mashg‘ulotlar, sifatli dasturlar,
- o‘qitish sifati,
- uqitish sifati

natijalarga erishish bilan bevosita bog‘liq. , Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg pedagog doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug‘ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: “Pedagog muntazam ravishda fan bilan shug‘ullanmog‘i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o‘xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, keljakda bunday pedagokdan hech qanday natija kutib bo‘lmaydi”. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo‘llari

Pedagogik-psixologiyada o‘qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo‘q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko‘payib va o‘zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha “o‘zgarmas irsiyat” nasldan – naslga o‘tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari ajratib ko‘rsatilgan:

Pedagog mahoratini oshirish uchun tavsiyalar

Mustaqil o‘qib-o‘rganish (pedagogika fanida ro‘y berayotgan eng so‘nggi yangiliklar haqida ma’lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, portal tizimi, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma’lumotlar, shuningdek, ilg‘or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).

Tajribali ustoz o‘qituvchilar faoliyatini o‘rganish (ta’lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt va iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o‘qituvchilar faoliyatini o‘rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko‘nikmalarni oshirib borish.

Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o‘qish hamda treninglar) da faol ishtirok etish.

Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning etakchi ta’lim muassasalarida o‘z tajribalarini oshirish, kasbi bo‘yicha eng so‘nggi ma’lumotlarni o‘rganish.

### MUHOKAMA VA NATIJA

Xozirgi zamon ta’limining eng muhim muammosi-maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va ta’lim sifatini yanada takomillashtirish hisoblanadi. Biz pedagoglarning mahoratini oshirishda nimalar to‘siq bo‘lyapti va kamchilik va muammolar qanday ekanligini tarbiyachilar o‘rtasida so‘rovnoma usuli va xorij tajribasi orqali o‘rgandik. Yuqoridaq natijalarimizdan shuni ko‘rishimiz mumkinki, pedagogic mahorat integratsiyalashgan jarayondir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta’limning davlat standartlarini amalga oshirishga qaratilgan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyada prinsipial muhim jihat - bu bolaning tarbiya va ta’lim jarayonida tutgan o‘rni va kattalarning bolaga bo‘lgan munosabatidir. Voyaga yetgan kishi, bolalar bilan muloqot qilishda: “Uning yonida emas, uning ustida emas, balki birga!” Degan pozitsiyaga amal qilishi lozim. Uning maqsadi bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga hissa qo‘shish hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya ishlarini talab darajasida amalga oshirish, tarbiyachilarda mehnat intizomiga qat’iy amal qilish ko‘nikmasini, birbirining kamchiliklariga tanqidiy munosabatni shakllantirish, mehnat va ijodiy faolligini oshirish orqali ish samaradorligini oshirish; qabul qilingan qarorlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minalash uslubchidan yuksak bilim va malaka, tarbiyachilar bilan ularning ruhiyatini inobatga olgan holda ishlash salohiyati, katta tajriba hamda ko‘plab ma’naviy fazilatlar sohibi bo‘lishni talab etadi. Shuning uchun ishini endi boshlayotgan har bir yosh mutaxassis yordam va maslahatga muhtojligini e’tiborga olib, uni yetarli bilim va tajribaga ega murabbiyga biriktirish maqsadga muvofiqdir. Uslubchi jamoani boshqarishda o‘zi shaxsiy namuna bo‘lishi lozim, ya’ni u barcha ishlarni oldida, boshida bo‘lib yetakchilik qiladi. Umuman olganda ko‘p adabiyotlarda “lider” so‘zini “yetakchi” atamasi bilan almashtirish hollari ko‘p uchraydi. O‘ylashimizcha, “yetakchi” atamasi “lider”ga xos bo‘lgan psixologik tavsifni to‘la ifodalay olmaydi. “Yetakchi” so‘zi guruhga munosabat sifatida, uning a’zolariga ta’sir o‘tkazuvchi va maqsadga etaklovchi shaxsga nisbatan ishlatalidi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo‘lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo‘lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsnинг vaziyatga

muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug‘iladi. Biron - bir muammoli vaziyatda paydo bo‘lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir. Muammoni echish bilan bog‘liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o‘zining ilg‘orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Liderlik va rahbarlik. Mehnat jamoasidagi har bir xodim tashkilotda o‘zining mavqeiga ega. Har qanday xodim o‘z hamkasabali bilan o‘zaro munosabatda bo‘lar ekan, turli omillar ta’sirida bu munosabatlar hissiy va kasbiy rang ola boshlaydi. Hissiyotga asoslangan munosabatlar ikki ko‘rinishda - yoqtirish (simpatiya) va yoqtirmaslik (antipatiya) sifatida shakllanadi. Shunday xodimlar ham borki, ular o‘zining ma’lum xislatlari bilan jamoaning ko‘pchilik a’zolarida simpatiya uyg‘ota oladilar va ular tashkilotning norasmiy tizimida yuqori mavqeni egallaydilar. Psixologik talqin bo‘yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo‘lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa – liderdir. Liderlik holati, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida amalga oshadi. Biron-bir shaxsning lider darajasida tan olinishi unga hissiy yaqinlikni, uning ish bilan bog‘liq bo‘lgan qator fazilatlarini yuqori baholashni va ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e’tiborliligin anglatadi. Lider - guruhning hamma a’zolari tomonidan tan olingan shaxs. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihat - guruh manfaatini har narsadan ustun qo‘yish, doimo guruh oldiga qo‘yilgan vazifani echishga sidqidildan kirishish va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimcha, samarali foliyat olib boruvchi metodist o‘z jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir xodim zarur vaziyatda o‘z imkoniyatini ishga solish orqali muammoli vaziyatni hal etishda qatnashishi va boshqaruv jarayonida ishtirok etayotganini his qila olsin. Buning uchun jamoa, har qanday vaziyatni hal etishda chuqur mas’uliyat his etuvchi va o‘z ishining ustalari bo‘lgan professional xodimlarga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, jamoada doimo shunday xodimlar topiladiki, ular paydo bo‘luvchi ko‘pgina muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, liderlik ko‘p jihatdan shaxs tug‘ma qobiliyalarining etarli darajada shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Yuqorida aytganimizdek, liderlikning asosiy jihatlaridan biri – jamoa manfaati haqida g‘amxo‘rlikdir. Shuning uchun ham liderlik ta’rifidagi asosiy ma’no kasb etuvchi tomonlar bu – shaxsning ushbu vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va jamoa manfaati yo‘lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin. Shaxsning liderlik imkoniyatini namoyon ettiruvchi yana bir asosiy tomon – jamoaning talab va istagiga mos kela olishidir.

Yaxshi natijalarga erishish uchun pedagog kuchli va kuchsiz tomonlarini doimiy ravishda o‘rganib borishi kerak, asta-sekin nafaqat ichki, balki shaxsiy, rivojlanishi

ham shakllanadigan ichki yadroni shakllantirishi lozim. Kasbiy rivojlanishida qancha ko‘p yutuqlarga erishsa, shaxs sifatida shuncha rivojlanadi. Ammo, maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimi kasbining o‘ziga xos xususiyatlari bor: u bola bilan ishlaydi, demak u o‘zini kuchli ishlaydigan vositadir. Va ushbu vosita qanchalik mukammal bo‘lsa, professional natija shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarining kasbiy sifatlari

Bolalarga qiziqish va muhabbat, o‘qitishga bag‘ishlash

Mehnatsevarlik, halollik, odoblilik

Hissiylik, nekbinlik

Nutqning ekspressivligi, pedagogik taktika

Ijodiy shaxsiyat

Tashkiliy ko‘nikmalar

Hazil tuyg‘usi

Qattiqqo‘llik, intizom va boshqalar.

Har qanday inson qayerda ishlamasin, har qanday ish muayyan ko‘nikmalarni rivojlantirishni talab qiladi. Pedagog uchun eng muhim mahorat bu o‘z-o‘zini o‘qitishdir. Bu ayniqlashtirish uchun juda muhimdir.

## REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirining 255-sonli buyrug‘i. 2021yil 30- dekabr.
2. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur chashmalari” T.: 2013 y.
3. Kayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T.: 2013 y.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag‘i ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
6. Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr.
7. Xasanboyeva O. Pedagogika tarixidan xrestomatiy. T.: “O‘qituvchi”, 2003 y. 8. Pedagogika. A. Munavvarov tahriri ostida. T.: O‘qituvchi. 1997
8. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, tdpn nashriyoti, o‘quv qo‘llanma. 2019
9. Line, M. "Creating Caring Qualified Early Childhood Teachers: An Exploration Of The Relationship Between Teacher Efficacy And Learner-Centeredness Among Early Childhood Professionals In Arkansas". Published by ProQuest(2016)

- 10.R. Suleymanova Kasbiy kompetentlikni shakllantirish. Психологик тренинг асослари фан, toplamlar va ular ustida amallar,
- 11.5341812802136840895/ <https://azkurs.org/kasbiy-kompetentlikni-shakllantirish.html>
12. <https://lex.uz/docs/-4749364>
- 13.Pedagogik komponentlik nazariya va amaliyot Gulmira Rifovna Tojiboeva
- 14.Ilmiy tadqiqot turlari va uni olib borishning asosiy usullari MA'RUZACHI: DOTSENT, T.F.N. SH.RAXMONOV  
Eshbayeva Feruza pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyati Harakatlar strategiyasi